



I QISM, MUNDARIJA

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal

MUASSISLAR: Beruniy tuman hokimligi

“Tafakkur-tamaddun” OOO

“Beruniy avlodlari” jamoat fondi

HAMKORLARIMIZ:

O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi

Qoraqalpog' davlat universiteti

Urganch davlat universiteti

Xorazm Ma'mun akademiyasi

TAHRIR HAY'ATI:

BOSH MUHARRIR:

Munavvara QURBONBOYEVA

BO'LIM MUHARRIRI:

Anvar ALLAMBERGENOV

Akmal SAIDOV, y.f.d., prof., akad.

Qahramon QURONBOYEV, s.f.d., prof.

Almagul BAYRIYEVA, s.f.d., (DSc)

Zabixulla SAIPOV, s.f.n., (PhD)

Zuhra REYMOVA, y.f.d., (DSc)

Karlig'ash UMAROVA, y.f.d., (DSc)

Anvar ABDULLAYEV, t.f.f.d., dots.

Gavhar DURDIYEVA, arx.f.d., prof.

Makset KARLIBAYEV, t.f.d., k.i.x.

O'tkir ABDULLAYEV, t.f.d., (DSc)

Kozimbek TUXTABEKOV, t.f.d., (PhD)

Umid BEKMUHAMMAD, t.f.d., (PhD)

Baxtiyor KARIMOV, fal.f.d., prof.

Marat NIYOZIMBETOV, fal.f.d.

Alima BERDIMURODOVA, fal.f.d.

Shohida SODIQOVA, sots.f.d.

Abdug'ani XOLBEKOV, sots.f.d.

Sobir XODJAYEV, sots.f.d., (PhD)

Zarifboy DO'SIMOV, fil.f.d., prof.

Olmos ULVIY, f.f.d., prof.

Doniyor YULDASHEV, fil.f.d. (DSc)

Vahob RAHMONOV, f.f.n., dots.

Qozoqboy YO'LDOSHEV, p.f.d., prof.

Safo MATJONOV, p.f.d., prof.

Qaxramon IBADULLAYEV, p.f.d., (DSc)

Masharib ABDULLAYEV, s.f.f.d., (PhD), k.i.x.

Anvar ISMOILOV, s.f.f.d., (PhD), k.i.x.

G'ayrat MAMBETKADIROV, s.f.d.

Svetlana MAMBETULLAYEVA, b.f.d., prof.

Otanazar RAHIMOV, b.f.n. ped.f.d., prof.

Umarbek ABDURAHIMOV, b.f.f.d. (PhD)

Nuraddin RO'ZIBOYEV, q.x.f.d.

Ne'matullo XUDAYBERGANOV, q.x.f.d., (PhD)

Zokir RAJABOV, q.x.f.d., (PhD), k.i.x.

Roza XOJAMURATOVA, g.f.d.

Sattorbergan AVEZOV, g.f.n., dots.

Keunimjay ALLANAZAROV, g.f.n., dots.

Furqat RAJABOV, g.f.d., dots.

Nargis ATABAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilafuz QARSHIYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Dilbar URAZBAYEVA, psixol.f.d., (DSc)

Mels QOBULOV, tib.f.d., prof.

Bozorboy ORAZALIYEV, t.f.n.

Davlatyor BOLTAYEV, t.f.n., dots.

FALSAFA

Gavxar ISTAMOBA. Tasavvuf tarixida “Nasoyim ul-muxabbat” tazkirasiga b'lgan munosabat.....	3
Zafarbek KARIMOV. Etnosotsial omillarning milliy reproduktiv hayotga ta'siri.....	6
Nodir JAMALOV. Kreativ g'oyalarning yoshlar ijodiy-innovatsion faolligiga ta'siri.....	10
Zikiрилло ЯЗДОНОВ. Qalandariylikning badiiy tafakkurga ta'siri va mumtoz adabiytdagi timsoillar ta'hlili.....	13
E'tibor RAJABOVA. Tadbirkorlikning falsafiy-madaniy funksiyalari.....	17
Zilola FAYZULLOYEVA. Expressive means and their role in translation of a literary text.....	21
M'aminaхон RA'ХIMOBA. Y'рта Oсиёда маърифатчилик ғояларининг шаклланишида Фитратнинг роли.....	32
Ravshan NAZAROV. Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar dunyoqarashi va ma'naviyatiga ta'siri.....	43
Maftuna OCHILOVA. Alisher Navoiy asarlarida ma'naviy-axloqiy qarashlarning falsafiy tahlili.....	65
Xakim SAIDOV. Xarbiy xodimlar tizimining shakllantirishda ijtimoiy falsafiy va retrospektiv endashuv.....	94
Bobir SAPAROV. Vatanparvarlik va millatparvarlik g'oyalarning nazariy va tarixiy ildizlari.....	105
Marjona DJAVOTOVA. Rahbar kadrlar axloqiy madaniyatini rivojlantirishning falsafiy muammolari.....	108
Olim NORKULOV. Migratsiya tushunchasining shakllanishi va turlarining jamiyatda amal qilish jarayonlari.....	112
G'olib XUSANOV. O'zbek oilasida yoshlarning axloqiy tafakkurini rivojlantirish masalalari.....	115
Aziza EGAMBERDIYEVA. Yoshlarda altruizmni shakllantirishda falsafiy qarashlarning roli.....	118
Nafisa EGAMBERDIYEVA. Oilada muomala madaniyatini oshirishda axloqiy qadriyatlarining o'rnini.....	123
Hamza QALANDAROV. Sovet davlatining musulmon ulamolariga qarshi qatag'onlik siyosati.....	127
Умида ДОСЧАНОВА, Жайхун МАДАМИНОВ. Философская антропология: исследование человека и его места в мире.....	133
Maftuna OCHILOVA. Theoretical and methodological aspects of the phenomenon of globalization.....	137
Шахзода КАМАЛОВА. Анализ научных взглядов о происхождении хорезмийского народа.....	141
Anora XUDOYBERDIYEVA. Oila mustahkamligi to'g'risida sharq manbalaridagi g'oyalar.....	144
Odiljon BOYNAZAROV. Ontological and epistemological problems of information culture formation.....	181
Лобар ЭРЙИГИТОВА. Ёлғиз кексаларни ижтимоий ҳимоялаш хорижий таҷрибасидан баъзи таҳлиллар.....	191
Жиенғалий УСЕНОВ. Ёшлар миллий менталитетини шакллантириш ва толерантлик руҳида тарбиялаш масалалари.....	195
Islom HAMDAMOV. Buyuk alloma Mir Alisher Navoiy Mirzo Ulug'bek ilmiy faoliyati haqida.....	202
Элёр УЛУҒМУРОДОВ. Ислом теологиясида онтологик масалалар фалсафий таҳлили.....	224

TARIX

Halimjon JO'RAYEV. Rus-tuzem maktablari faoliyatiga doir.....	28
Sevara ABDUSALOMOVA. Mustaqillik yillarida Tojikistonda temir yo'l tarmoqlarining holati.....	60
Бекзод ЖУМАНИЯЗОВ. Ўзбекистонда фуқаролик жамияти институтлари ҳуқуқий асосларининг шаклланиш тарихи.....	92
Shaxriddin SHARIPOV. Milliy-madaniy markazlar faoliyati millatlararo totuvlikni ta'minlashning bosh omili sifatida.....	102
Ro'zimuhammad TO'XTASINOV. Movarounnahr fiqh manbalari asosida ayol kishining qimmatbaho toshlardan foydalanish hukmlariga doir hadislar tahlili.....	124
Mansur KARIMOV. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari 1994-2013-yillarda Yevropa ittifoqi tashkilotining Tempus xalqaro loyihalarida ishtiroki va uning natijalari.....	130
Feruza NORMATOVA. Jarqo'ton-Shahdod piktografikasi yozuvlari:taqqoslash, tahlil va xulosa.....	164
Dilfuza ISMOILOVA. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida islom dinining Turkiston xalqlari hayotidagi o'rnini va roli.....	169
Шаҳобиддин ДАРИПОВ. Янги Ўзбекистон тараққиётида темир йўлларнинг аҳамияти.....	184
Валижон АШИРОВ. Саноат шаҳарлари аҳолисини озиқ-овқат маҳсулотлари билан таъминлаш жараёни.....	187
Nabijon DAMINOV. Samarqand viloyatida sog'liqni saqlash sohasining rivojlanishida xalqaro hamkorlik aloqalarining o'rnini (1991-2016 yy.).....	205
Jamshid ARZIQULOV. Turkiston ko'rgazma-yarmarkalarida kundalik maishiy xizmat buyumlari va tovarlarining namoyishi xususida (XIX asr oxiri - XX asr boshlari).....	214
Gavharoy BAYZAKOVA. Suriya xavfsizligini ta'minlash muammolari, omillari, shart-sharoitlari.....	231
Dilshodbek KALONOV. O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi turizm sohasidagi hamkorlik tarixidan.....	233
Shahzod LUHMONOV. XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Rossiya moliya islohotlarining tahliliy xususiyatlari.....	236

JAMOATCHILIK

KENGASHI:

Sirojiddin SAYYID

Muhammad ALI

Kengesboy KARIMOV

Iqbol MIRZO

Qurbon SHONIYOZOV

O'rozboy

ABDURAHMONOV

Murotboy JUMANOV

Adabiy maslahatchi:

Guliston MATYOQUBOVA

Rassom:

Alibek ABDURAHMONOV

Sahifalovchi-bezovchi:

G'iyosiddin O'NAROV

Texnik muharrir:

Ulug'bek SAIDOV

Manzilimiz:

Qoraqalpog'iston

Respublikasi,

Beruniy tumani.

Web-sayt:

<https://tamaddunnuri.uz>

e-mail:

tamaddunnuri1@gmail.com.

Telegram kanali:

<https://t.me/tamaddunnuri>

Tel.: (+99888) 036 00 55,

(+99897) 355 75 40.

Jurnal 2016-yil

28-sentyabrda

O'zbekiston Respublikasi

Matbuot va axborot

agentligi tomonidan

№ 0843 raqami bilan

qayta ro'yxatdan o'tgan.

PEDAGOGIKA

Ozoda YADGAROVA. Kasbiy-pedagogik kompetentlilik o'qituvchining kasbiy samaradorligini ta'minlovchi muhim fenomen sifatida.....52

Jahongir KENJABAYEV. Zamonaviy texnologiyalar metodikasi orqali chet tilini o'rgatish usullari.....71

Kamuna NAZAROVA, G'ofir HAMROYEV. O'quvchilarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning ahamiyati.....98

SAN'ATSHUNOSLIK

Gulmira O'TEGENOVA. Milliylik – ma'naviyat asosi.....63

FILOLOGIYA

Zilola FAYZULLOYEVA. Expressive means and their role in translation of a literary text.....21

Шухрат ХУДАЙБЕРГАНОВ. Исследование идиом и идиоматических выражений в лингвистике.....25

Nargiza AXMEDOVA. O'zbek tilida belgi bildiruvchi so'zlarning assotsiativ tahlili.....36

Yo'ldosh RAHMATOV. Mumtoz nasriy-didaktik asarlar va xalq maqollari.....39

Anvar ALLAMBERGENOV. "Chayongul yoxud quyiqlik qotillik" qissasi syujeti xususida.....46

Nilufar BOBOQULOVA. Ingliz va o'zbek tillarida "hand/qo'l" somatik komponentli maqollar semantikasining chog'ishtirma tahlili.....57

Dilrabo YUSUFOVA. Notiqlik san'ati: nutq texnikasining pedagogik kasbidagi roli va samaradorligi.....68

Laylo MIRZOYEVA. Mehmonxonaga oid terminlarning semantikasi.....74

Sohiba RADJABOVA. Ingliz va o'zbek tillarida zoonim komponentli frazeologik birliklar semantikasi.....76

Davronbek ABDULLAYEV. Iboralardagi mental munosabat milliy ifoda va lingvomadaniy omil sifatida.....79

Зебо ЯХШИЕВА. Персонаж Амира Темура, перекочевавшая в мировые и турецкие исторические романы.....82

Oydin TUYCHIEVA. "Ruze ravshan" tazkirasida ayollar nasri va nazmi: adabiyotshunoslikdagi ahamiyati va mohiyati86

Хожиакбар АБДУМАННОНОВ. Семантические отношения между фразами.....148

Mahbubaxon SHOKIROVA. Значение коммуникативных методов в обучении медицинской терминологии.....152

Suxrob SAITOV. Humorous pathos and artistic expression.....155

Zaxiriddin SULAYMANOV. Agiografiyada tarixiylik va badiiy ifoda imkoniyatlari.....159

Feruza ADAMBAYEVA, Nilufar SA'DULLAYEVA. O'zbek va ingliz tillarida biotexnologiyaga oid monoleksemik atamalarining morfologik xususiyatlari.....173

Зауре САИТОВА. Типологические связи английских, каракалпакских и узбекских сказок.....177

Zarrina NABIYEVA. "Define" va "identify" ijtimoiy-munosabat fe'llarining leksik va semantik tahlili.....198

Nilufar ALLABERGANOVA. Reklama matnlari tili va uning o'ziga xos ta'sir kuchi.....211

Alisher NABIYEV, G'aybullo MIRSANOV. Tilshunoslikda neytralitetning ahamiyati.....218

Жавоҳирхон НАСРУЛЛАЕВ. Толерантлик: рус ва инглиз тилларида лексик маъно, қиёсий таҳлил ва семантик хусусиятлар.....221

Zuxra BARATOVA, Iroda NORBAYEVA. The term stream of consciousness in literature.....227

NAZM

Abdulla ORIIPOV. Inju diyor uchun.....239

Qog'oz bichimi 60x84 ¼. Nashriyot hisob tabog'i 6,5. Indeks – 960.

ISSN 2181-8258.

15.12.2023-yilda bosishga ruxsat berildi.

"ADAD PLYUS" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Adadi 300 dona.

Toshkent shahri, Chilonzor ko'chasi, 28-uy.

2023-yil, 12-son, I qism (51).

Ushbu son "Tamaddun nuri" jurnali tahririyatining kompyuterida sahifalandi. Buyurtma №20.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri" dan olindi deb izohlanishi shart.

Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar tahrirlanadi, taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

ETNOSOTSIAL OMILLARNING MILLIY REPRODUKTIV HAYOTGA TA'SIRI

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq, millat reproduktiv hayotiga ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning, professional munosabatlarning, ma'naviy munosabatlarning, intellektual munosabatlarning, ijtimoiy maishiy sohalarining ta'siri tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: reproduktiv hayot, psixoenergetik imkoniyatlar, sog'lom turmush tarzi, reproduktiv taraqqiyot, intellektual munosabatlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.

Аннотация: В данной статье исследуется влияние социально-экономических, профессиональных, духовных, интеллектуальных отношений, социально-бытовой сферы на репродуктивную жизнь народа и нации.

Ключевые слова: репродуктивная жизнь, психоэнергетические возможности, здоровый образ жизни, репродуктивное развитие, интеллектуальные отношения, социально-экономические отношения.

Annotation: This article examines the influence of socio-economic relations, professional relations, spiritual relations, intellectual relations, social and everyday spheres on the reproductive life of the people and the nation.

Key words: reproductive life, psychoenergetic capabilities, healthy lifestyle, reproductive development, intellectual relations, socio-economic relations.



**Zafarbek
KARIMOV,**
Urganch davlat
universiteti
pedagogika
fakulteti dotsenti



Reproduktiv salomatlik va taraqqiyotni faqat sog'lom turmush tarzi fenomeni bilan tadqiq etish kamlik qiladi. Hatto bu boradagi tibbiyot, xalq tabobati va jismoniy mashqlari, psixoenergetik imkoniyatlardan foydalanish, ginekologik va farmatsevtik aralashuvlar ham yetarli emas. Kompleks yondashuv obyekt (predmet)ning immanent xususiyatlaridan, uning ko'pomillik va ko'pfunksiyalik jihatlaridan kelib chiqadi. Xo'sh, bu etnosotsial omillar nimalardan iborat? Ular sog'lom turmush tarzi va uning milliy reproduktiv hayotga, taraqqiyotga qanday ta'sir etadi?

Avvalo shuni aytishimiz kerakki, etnosotsial omillar deganda, biz ma'lum bir xalqqa, millatga taalluqli bo'lgan, uning ijtimoiy borlig'ini belgilab keladigan sohalarini, munosabatlarni nazarda tutamiz. Sog'lom turmush tarzi va uning reproduktiv taraqqiyotga ta'siri masalalari ham shunday yondashuvni talab qiladi. Biz, tadqiqotimiz obyekt (predmeti)ning xususiyatlari va ilmiy maqsadimizdan kelib chiqib, etnosotsial omillarni quyidagi yo'nalishlarda tadqiq etamiz:

- ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, ya'ni mehnat, ish bilan bandlik, mehnat jarayonida o'zini namoyon etish kabilar bilan bog'liq sohalar;
- professional munosabatlar, ya'ni kasb-kor talab etadigan jismoniy yetuklik, chiniqqanlik, chaqqonlik, sport sohalar;
- ma'naviy munosabatlar, ya'ni xobbi, rekreatsiya bilan bog'liq sohalar;
- intellektual munosabatlar, ya'ni aqliy salomatlikni shakllantiruvchi sohalar;
- aholini toza suv, gaz, elektr energiyasi, transport vositalari bilan ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy maishiy sohalar;

-ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jamiyat hayotining o'zagini tashkil etadi, inson salomatligini, sog'lom turmush tarzini ta'minlash ushbu omilga bog'liqligi aksiomadir. Aholini ish bilan band etish, mehnat resurslaridan unumli foydalanish davlatimizning bosh strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu o'rinda statistik ma'lumotlarga murojaat etishga to'g'ri keladi. 2008-yili respublikamizda mehnat resurslarining soni 15644,9 ming kishini tashkil etgan, 2010-yili u 16504,2 ming, 2012-yili 17663,1 ming, 2018-yilga kelib esa 19601,2 ming kishiga yetgan. Ular ichida mehnatga layoqatlilar soni, yuqoridagi yillar tartibida, 15458,7 ming, 16263,6 ming, 17550,2 ming va 18672,1 ming kishidir. 2008-2018-yillar ichida mamlakatimiz aholi soni deyarli 13 foizga ko'paygan, mehnat resurslari soni esa 13,7 foizga oshgan. Mehnat resurslari tarkibida mehnat yoshidagi mehnatga layoqatlilar soni 13,5 foizga o'sib boradi, ishlayotgan o'smir va nafaqaxo'rlar soni esa 39,4 foizga kamaygan. Respublikamizda ish bilan bandlik soni 2008-yili 11035,4 ming kishini tashkil qilgan, 2018-yili esa 14465,3 kishiga yetgan. Respublikamiz aholisi-ning ish bilan bandlik darajasi 96,4 foizni tashkil etmoqda. Bizning hisob-kitoblarimizga ko'ra, 2008-2018-yillar davomida iqtisodiyotning rasmiy sektorida band bo'lganlar soni 16,2 foizga, norasmiy sektorda bandlar 4,9 foizga, mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun chet ellarga ketganlar soni esa 5,0 foizga ko'paygan [1:191-192]. Ish bilan ta'minlashga muhtoj kishilar soni quyidagicha: 2008-yili 567,7 ming, 2010-yili 628,2 ming, 2012-yili 626,3 ming va 2018-yili 702,1 ming kishini tashkil etgan. To'g'ri, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning aholini ish bilan band etish, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish borasida amalga oshirayotgan dadil islohotlari ta'sirida ishga muhtojlar soni kamaygani, ya'ni 2018-yilgi ko'rsatkichdan 32 foiz kamaygani kuzatiladi. Respublikamizda ish bilan bandlikni tashkil etish borasida jiddiy ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, mehnat resurslarining talablarini to'la qondirish muammoligicha qolmoqda. Ming afsuski, bizda ijtimoiy-iqtisodiy hayotning sog'lom turmush tarziga, aholi salomatligiga ta'siri borasida deyarli hech qanday

manba uchramaydi. Ammo, aholining umr ko'rishi mustaqillik yillarida 66,6 yoshdan 72 yoshga yetgani qayd etiladi. Shuning uchun muammo yechimini gipotetik tarzda tasavvur etish mumkin:

birinchidan, ish bilan bandlik insonning psixofiziologik holatiga ijobiy ta'sir etadi; **ikkinchidan**, uni ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda faol qatnashib, jamiyat moddiy hayotini yaxshilashga, rivojlantirishga hissa qo'shayotganini anglashga undaydi; **uchinchidan**, o'zining va oilasining farovon, moddiy ta'minlanganlik darajasini oshiradi; **to'rtinchidan**, jismoniy xatti-harakatlar, mehnat organizmiga ijobiy ta'sir qiladi, uning tetik, bardam yashashiga yordam beradi; **beshinchidan**, mehnat jarayoni unga o'z faoliyati, xatti-harakatlari va salomatligi uchun mas'ulligini shakllantiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotda qatnashish faqat moddiy boyliklar yaratish, ishlab chiqarish jarayonlarini yo'lga qo'yish va boshqarishdan iborat emas, uning insonning psixofiziologik holatiga, jismoniy takomili va salomatligiga ham ijobiy ta'sir etishini unutib bo'lmaydi. Ish bilan bandlik, E.Fromm iborasi bilan aytganda, "sog'lom jamiyat va sog'lom shaxs shakllanishining ijtimoiy-psixologik asosidir" [2:238-242]. O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda teng huquqli qatnashishi huquqiy kafolatlangan, davlatimiz ichki siyosatining muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Bugun Respublikamizda turli sohalardagi mehnat resurslarining 45 foizi xotin-qizlardan iborat. Ishlab chiqarishning barcha yetakchi tarmoqlarida: yengil sanoatda, qishloq xo'jaligi, transport, qurilish, aloqa, xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport sohasida xotin-qizlarimiz faol ishtirok etmoqda. Ushbu masalalar davlat e'tiboridan muntazam ravishda joy olib kelayotir, bolalik ayollar huquqini kafolatlash uchun xotin-qizlarimizga ishlab chiqarishda ham, turmushda ham ijtimoiy shart-sharoitlar yaratib berilgan. Har yili Respublikamizda jamoa shartnomalari va kelishuvlari asosida: 1) 600 mingdan ortiq xotin-qizlar qo'shimcha ta'til oladi; 2) 40 mingdan ziyod homilador ayollarga beriladigan tug'ish ta'tillaridan 1-2 oy ortiq ta'tilni korxona hisobidan

uzaytirib oladi; 3) maktab yoshidagi bolalari bo'lgan ko'p bolali 200 mingdan ko'proq ayol qisqartirilgan ish kuni bilan ta'minlanib, ularga moddiy yordamlar ko'rsatiladi; 4) 2 yoshdan 3 yoshgacha bolasi bo'lgan 40 ming nafardan ortiq ayol bola parvarish qilgani uchun ta'til, moddiy yordam bilan ta'minlangan (davlat nafaqasi faqat bola yoshga to'lguniga qadar beriladi); 5) byudjet tashkilotlarida ishlayotgan 3 yoshgacha farzandi bo'lgan onalar 1 soatga qisqartirilgan ish kuni tartibi asosida ishlaydilar. Mehnatga layoqatli yoshdagi xotin-qizlar soni 5,1 million, ulardan 4,9 millioni ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida mehnat qiladi, jumladan 2,9 million xotin-qiz rasmiy, 2,0 millioni esa norasmiy sektorda xizmat qiladi. Ishga muhtoj xotin-qizlar soni 176 mingni tashkil qiladi [3:243-244]. Shu bilan birga, xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligi oshib borayotganini unutib bo'lmaydi. Agar 2000-yilda ularning bunday faolligi 4 million atrofida bo'lgan bo'lsa, 2008-yilga kelib, bu ko'rsatkich 5,0 millionga, 2018-yilga kelib esa, 6,9 millionga ko'tarilgan. Professional munosabatlar tizimiga kasb-kor faoliyati talab etadigan salomatlik, chaqqonlik, kuch-quvvat va alohida jismoniy tayyorgarlikka oid sohalar, jihatlar kiradi. Sportsmenlarning uzoq umr ko'rishi isbotlanmagan, kon ishchilarining salomat yurishi haqida esa, biror fikr aytish qiyin, alpinistlar ichida reproduktiv o'sish kuzatilmaydi. Agar, sog'lom turmush tarzi, salomatlik kishilarning uzoq umr ko'rishiga, reproduktiv o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatsa, buni avvalo yuqoridagi toifada kuzatish kerak edi. Shuning uchun ham salomatlikni, sog'lom turmush tarzini kundalik hayotiga aylantirgan toifadagi kishilarning reproduktiv hayotini maxsus o'rganish zarur. Ammo pedagogik va psixologik izlanishlar ko'rsatadiki, sog'lom turmush tarzi, salomatlik mashqlari insonning psixofiziologik holatiga ijobiy ta'sir etadi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi faolligini oshiradi, tanasining kelishgan, estetik go'zal va baquvvat rivojlanishiga yordam beradi [4:46-48]. Shunday ekan, ijtimoiy-iqtisodiy faollikni salomatlik belgisi, ko'rsatkichi sifatida qarash o'rinlidir. Ha, ayrim hollarda jismonan salomat bo'lmagan kishi ijtimoiy-iqtisodiy yoki intellektual sohada faollik ko'rsatishi mumkin. Hatto ijtimoiy-iqtisodiy hayotda faol qatnashayotgan barcha kishilar ham jismonan va reproduktiv

salomat bo'lavermaydi. Ayollarda 50 yoshdan, erkaklarda 60 yoshdan keyin reproduktiv faollik sekinlashadi yoki butunlay to'xtaydi, biroq bu ularning ijtimoiy-iqtisodiy faolligiga mutlaqo ta'sir etmasligi mumkin. Professional munosabatlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotga taalluqli voqelik, ularning ayrimlari (konchilar, gaz-neft qazib olish bilan band ishchilar) ishlab chiqarishga aloqador. Bu ishchilar salomatligining ta'minlanishi maxsus tibbiyot bo'limlari nazorati ostida. Mazkur voqelik professional faollikning inson reproduktiv salomatligiga ta'siri masalasini maxsus o'rganish zarurligini inkor qilmaydi. Inson o'z organizmini zarur holatda saqlash, ishchanlik va chaqqonlikni hayot tarziga aylantirish uchun ma'lum bir soatlarda dam olishi, hordiq chiqarishi, o'zining psixofiziologik holatini tiklashi zarur. Buning eng samarali usuli mehnat faoliyati turini o'zgartirib turish, ma'naviy-ruhiy hayotga zavq va shavq beruvchi xobbiga, erkin mashg'ulotlarga ega bo'lishdir. "Dam olish va hordiq chiqarish shaxsiy hamda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan voqelikdir. Uning shaxsiy mohiyati kishi tanasining psixofiziologik qayta tiklashga, ijtimoiy mohiyati esa kishi hayotini, turmushini go'zallashtirish, serzavq qilishga muhtojligida aks etadi" [5:55]. Insondagi ushbu tabiiy va psixo-fiziologik ehtiyoj bugungi hayot ta'sirining mahsuli emas, ishlab chiqarish, madaniyat va urbanizatsiya yuksalgan sari kishi bo'sh vaqtga, dam olishga bo'lgan ehtiyojini qondirishning rang-barang shakllarini kashf etib keladi. Ammo inson umrning betakror, beqiyos boylik ekanini unutilmaydi, u hatto bo'sh yoki dam olayotgan vaqtida ham bir nimani bilishga, nimanidir yaratishga, qilishga intiladi. Insondagi ushbu istak to'xtamaydi, balki u inson hayotiga, borlig'iga mohiyat baxsh etadi. "Hozirgi iqtisodiy tanglik, xususiy mulkchilikning o'zaro musobaqalashib, raqobatlashib ishlashni kuchaytirayotgani, yon-atrofda bo'layotgan fuqarolar va davlatlararo to'qnashuvlar kishi ruhiyatiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi. Inson esa, doimo yechilmagan muammolar, qarama-qarshiliklar to'fonida qololmaydi. U vaqti-vaqti bilan mavjud ziddiyatlardan, kurashlardan xoli bo'lishi yoki ularni ma'lum bir vaqtga unutishi ham kerak" [5:55]. Dam olish va hordiq chiqarish, rekreatsiya insonning kundalik holatiga, salomatligiga ta'sir etadi, undagi charchoqni, stressni bartaraf etishga

yordamlashadi. O'tkazilgan maxsus tadqiqotlar bo'sh vaqt va dam olish, xobbi inson hayotiga universal ta'sir etishini tasdiqlaydi. Shuning uchun tadqiqotchilar kishilarning o'z bo'sh vaqtlari va dam olishlarini qaerlarda o'tkazishini, geografiasini aniqlashga harakat qilishgan. Masalan, so'ralgan respondentlarning ko'pchiligi (70-80%) bo'sh vaqtlarini asosan uy, oilada o'tkazishi zarur, deb ko'rsatishadi. Bu ko'rsatkich qishloq ekspertlarida 80,4% va tuman ekspertlarida 76,6 % ni, shahar ekspertlarida esa 53,7 % ni tashkil etgan. "Bu xalqda keng tarqalgan an'anaviy dam olish usulining ta'siridir"[5:56]. Bo'sh vaqt va dam olishni oilada o'tkazishning o'ziga xos milliy xususiyatlari mavjud, ilgari o'zbek xalqi, ayniqsa xotin-qizlar, faqat bayramlar, marosimlar paytidagina ko'cha tadbirlarida qatnashgan. Eraklarda ham topgan pulini o'ziga, o'zining kayfiyatini ko'tarishga, psixofiziologik holatini yaxshilashga sarflash odati deyarli bo'lmagan. Haqiqatan ham, o'zbek xalqi oilam, farzandlarim, deb yashagan. Biroq bugun ijtimoiy-madaniy hayot va undagi odatlar transformatsiyaga uchramoqda, nafaqat ayrim kishilar, hatto oilalar ko'chada ovqatlanishga, dam olish va hordiq chiqarishni saylgohlar, kafe-restoranlar, istirohat maskanlarida o'tkazishga intilmoqda. Bu yangilanishlar oilaviy munosabatlarga, oilaning reproduktiv hayotiga qanday ta'sir etyapti? Ijobiy ta'sir etyaptimi yoki salbiy? Bizning bu savolimizga aholishunoslar va madaniyatshunoslar javob izlashlari zarur...

Intellektual munosabatlar deganda biz aqliy mehnat, ilmiy, badiiy estetik ijod, ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi, ziyolilar deb ataluvchi aholi qatlamiga oid faoliyat turlarini nazarda tutamiz. Bugun intellektual munosabatlar ishtirokchilarining doirasi keskin kengayib bormoqda, bu ilmiy-texnik kashfiyotlarning ijtimoiy borliqqa, jamiyat hayotiga ta'siri oshib borayotganidan darak beradi. Qishloq joylarida ikki, uch avlodlik tendensiyasi u yoki bu ko'rinishda saqlanib qolayotgani ko'zga tashlanadi. Masalan, O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor R.Ubaydullayevning keltirishicha, uchgacha farzandlari bor oilalar egalari yoshi 18-29da, uch va undan ortiq farzandlar ko'rishni asosan katta va keksa avlod istaydi. Ming afsuski, bunday kishilarning soni kamayib bormoqda" [6:65]. Mazkur fikrni boshqa

tadqiqotchi o'tkazgan sotsiologik kuzatuv ham tasdiqlaydi. "Oilangiz necha avlodli?" degan savolga respondentlarning 59 foizi uch (bobo, momo, er-xotin va ularning oila qurmagan farzandlari), 29 foizi ikki (er-xotin va ularning oila qurmagan farzandlari) va 2 foizi bir (er-xotin) avlodli, deb javob beradi. Javoblardan ma'lum bo'ladiki, bugungi oilalar asosan ikki-uch avlodlidir. To'rt avlodli oilalar ko'proq qishloq joylarida, katta oila sifatida, bir ikki avlodli oilalar esa, asosan shaharlarda uchraydi. Zamonaviy ko'p qavatli uylarning ko'payayotgani oilalardagi avlodlararo munosabatlarga ham ta'sir etayotgani kuzatiladi. Chamasi bundan keyin ikki avlodli oilalar soni yanada oshadi" [7:69]. Bu o'rinda gap asosan shahar aholisi va shaharlik oilalar ustida ketayapti. Sog'lom turmush tarzining shakllanishi toza ichimlik suvi, gaz va elektr ta'minotini, xullas ijtimoiy sohani kerakli saviyada tashkil etishni ham taqozo etadi. Masalan, so'nggi ikki yil ichida ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimini yaxshilashga 2 trillion 400 million so'm ajratilgan. Bu avvalgi o'n yildagidan ikki barobar ko'pdir. Shunga qaramay, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash 68 foizni tashkil etadi [8].

Sog'lom turmush tarzi va reproduktiv taraqqiyot insonning faqat jismoniy salomatligi, faolligi emas, u o'z navbatida, sog'lom aqlni, sog'lom fikrni ham taqozo etadi. Nafaqat sog'lom tana sog'lom fikr, shuningdek, sog'lom fikr bo'lmaguncha tana ham sog'lom bo'lolmaydi. Sog'lom fikrni shakllantirish sog'lom tanani shakllantirishdan murakkabroqdir. Agar biz reproduktiv o'sishni real voqelikka, xalq, millat taraqqiyoti mezoniga aylantirmoqchi ekanmiz, aholida sog'lom aqlni, tafakkurni shakllantirish haqida bosh qotirishimiz zarur. Bu aql, tafakkur har bir sog'lom kishida jismonan va aqlan salomat, baquvvat farzandlar ko'rish, ularni barkamol insonlar qilib tarbiyalashga yo'naltirilgan bo'lishi dardor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bosh maqsadimiz keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. O'quv qo'llanma. Toshkent: O'qituvchi, 2013.; O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining 2016-2019-yillar ma'lumotlaridan foydalanib tuzildi.
2. Фромм Э. Здоровое общество. Москва: ООО ACT, 1997.

3. G'affarova M. O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida xotin-qizlar mavqei. Toshkent: Yangi kitob, 2017.

4. Акимова Л.А. Формирование культуры здорового и безопасного образа жизни молодёжи. Монография. Оренбург: Экспресс Печать, 2012; Вайнер Э.Н. Валеология: учебный практикум. Москва: Флинта Наука, 2002; Алламуратов Ш.И., Пижидаева Т.Ф., Хасанова Л.Ш., Савочкин М.Б. Физическая культура и здоровый образ жизни. Ташкент: ТИТЛП, 2011.

5. Alimasov V., Manzarov Yu. O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy soha: nazariya va amaliyot (falsafiy sotsiologik tadqiqot). Toshkent: Navro'z, 2014.

6. Ubaydullaeva R.A. Семья в Узбекистане. Toshkent: Ijtimoiy fikr, 2012.

7. Zohirov R. Oilada avlodlararo munosabatlarni mustahkamlash masalalari (ijtimoiy-falsafiy yondashuv). Qarshi: Nasaf, 2019. 69 b.

8. Xalq so'zi, 2020, 27 noyabr.

TAMADDUN NURI

FALSAFA

UDK: 796(094)

KREATIV G'OYALARNING YOSHLAR IJODIY-INNOVATSION FAOLLIGIGA TA'SIRI

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyoda yaratilayotgan ilmiy-texnik ixtirolarning 90 foiziga yaqini G'arb davlatlariga to'g'ri kelayotgani, biz istaymizmi yoki yo'q, ixtirolarga singdirilgan ma'lum qarashlar, fikr va hayot tarzi bizga kirib kelayotganligi izohlangan. Bunday ta'sirsiz integratsiyaning bo'lishi mumkin emasligi, biroq innovatsiya va modernizatsiyani milliy taraqqiyotimiz uchun ijobiy voqelikka aylantirishning eng samarali yo'li mavjudligi, u innovatsion o'zgarishlarni milliy ma'naviy-axloqiy imperativlar bilan singarmonik uyg'unlashtirish, shu tariqa ularni xalqimiz manfaatlariga muvofiq keladigan milliy, o'ziga xos hodisaga aylantirish zaruriyati asoslangan.

Kalit so'zlar: kreativlik, ekstaz daraja, ta'lim-tarbiya, improvizatsiya va moslashuv, men, ego, kognitivlik.

Аннотация: В данной статье объясняется, что около 90 процентов созданных в мире научно-технических изобретений принадлежат западным странам, хотим мы того или нет, к нам приходят определенные взгляды, мысли и образ жизни, заложенные в изобретениях. Такая эффективная интеграция невозможна, но наиболее эффективный способ превратить инновации и модернизацию в позитивную реальность для нашего национального развития – это гармонизировать инновационные изменения с национальными духовными и моральными императивами, сделав их, таким образом, частью нашего народа. исходя из необходимости превратить его в национальное, уникальное явление, соответствующее интересам.

Ключевые слова: творчество, уровень экстаза, образование, импровизация и адаптация, самость, эго, познание.

Annotation: This article explains that about 90 percent of the scientific and technical inventions created in the world belong to Western countries, whether we like it or not, certain views, thoughts and lifestyles inherent in the inventions come to us. Such effective integration is not possible, but the most effective way to make innovation and modernization a positive reality for our national development is to harmonize innovative changes with national spiritual and moral imperatives, thereby making them part of our people. based on the need to turn it into a national, unique phenomenon that corresponds to interests.


Key words: Creativity, level of ecstasy, education, improvisation and adaptation, self, ego, cognition.



Nodir JAMALOV,
Nizomiy
nomidagi
Toshkent
davlat pedagogika
universiteti
dotsenti, yu.f.n.

TAMADDUN NURI

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal ISSN 2181-8258



YURTIMIZDA ULUG' BAYRAM



“Дунёнинг турли минтақаларида зиддият ва қарама-қаршиликлар, қуролли тўқнашувлар тобора авж олиб бормоқда. Олдимизда янги-янги муаммолар пайдо бўлмоқда. Ҳозирги ўта мураккаб ва таҳликали вазиятда барчамиз янада бирлашимиз керак. Танлаган йўлимиздан қатъий олға боришимиз зарурлигини асрлар давомида қўллаб оғир синов ва машаққатлардан муносиб ўтган мард ва донишманд халқимиз албатта яхши тушунади”.

